



XALQ DEPUTATLARI NAMANGAN TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2024-yil 27-dekabr

VII-3-025-6-82-K/24

Namangan tumani

Namangan tumanining 2025 yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6, 24-moddalari, Byudjet kodeksining 27, 99-moddalari, "2025 yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida"gi 2024 yil 24 dekabrda O'RQ-1011-son Qonunga va xalq deputatlari Namangan viloyat Kengashining 2024 yil 26 dekabrda VII-4-030-6-0-/24/K-son qaroriga muvofiq hamda viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2024 yil 26 dekabrda 02/01-32/811/1-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari Namangan tuman Kengashi,

QAROR QILADI:

1. O'zbekiston Respublikasining "2025 yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida"gi Qonuni hamda xalq deputatlari Namangan viloyat Kengashining 2024 yil 26 dekabrda VII-4-030-6-0-K/24-son qarori (keyingi o'rinlarda qaror deb yuritiladi) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur qarorga muvofiq, Namangan tumani mahalliy byudjetining 2025 yilgi daromadlari **135 912 882.0 ming.so'm** va xarajatlari esa **135 912 882.0 ming.so'mga** ma'lumot uchun qabul qilinganligi shuningdek Namangan tumani mahalliy byudjetining shaxsiy g'azna hisobvarag'ida turgan byudjet mablag'larining yo'l qo'yiladigan eng kam miqdori **356 456.0 ming.so'm** etib belgilanganligi inobatga olinsin.

3. Tuman mahalliy byudjeti daromadlarining 2025 yil uchun asosiy prognoz ko'rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq hamda tuman mahalliy byudjetidan 2025 yilda hududiy byudjet mablag'larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq ma'lumot uchun qabul qilinsin, shuningdek Namangan tumani mahalliy byudjetiga umumdavlat soliqlari va boshqa soliqsiz tushumlardan ajratmalar me'yorlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman mahalliy byudjeti zaxira jamg'armasi hajmi 2025 yil uchun **1 775 003.0 ming.so'm** miqdorida belgilansin. Bunda, zaxira jamg'armasi mablag'larini amaldagi byudjet qonunchiligiga muvofiq, byudjet tizimi byudjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo'lmaydigan xarajatlarni, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy

beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo'lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo'naltirilishi ta'minlansin.

5. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari Sh. Abubakirov, tuman Iqtisodiyot va moliya bo'limi A.Sobirjonov, tuman soliq inspeksiyasi D. Tursunov bilan birgalikda 2025 yil mahalliy byudjeti uchun belgilangan ko'rsatkichlarni o'z vaqtida va samarali bajarilishini ta'minlash choralari ko'rsin.

6. Hududiy byudjet mablag'larini taqsimlovchilar byudjetdan ajratilgan mablag'lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni birinchi navbatda to'liq rejalashtirilishi va o'z vaqtida to'lanishi hamda davriy jamlanma moliyaviy hisobotlarni to'g'ri shakllantirilishi va o'z vaqtida taqdim etilishini ta'minlasin.

7. Mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

8. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Namangan tuman Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi raisi E.Yusupov hamda tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari Sh. Abubakirov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



MO'MINOV
SADRITDIN
ZOKIROVICH

Xalq deputatlari Namangan tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-3-025-6-82-K/24 -son qaroriga
1-ilova

2025 yil uchun Namangan tuman mahalliy byudjeti
daromadlari prognozi

		ming so'mda
№	Daromad turlari	Наманган тумани
	JAMI	135 912 882
1	Foyda solig'i	0
2	Aylanmadan olinadigan soliq	8 348 000
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	61 416 520
4	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	1 268 000
	Aksiz solig'i jami	17 942 820
	<i>alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)</i>	0
	<i>pivo</i>	0
5	<i>benzin, dizel yoqilg'isi va gazni oxirgi iste'molchiga realizatsiya qilishda to'lanadigan aksiz solig'i</i>	17 942 820
6	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	6 054 000
7	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i	9 363 142
8	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i	8 229 000
9	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i	19 688 000
10	Qurilish materiallari bo'yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq	80 000
11	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	5 655 000
	<i>shundan: Qishloq xo'jaligi korxonalari bo'yicha suv solig'i</i>	<i>5 624 000</i>
	<i>Qishloq xo'jaligi korxonalari suv solig'ining 40 foizini qaytarish (PQ-5)</i>	<i>2 249 600</i>
12	Davlat ulushi bo'yicha dividendlar va davlat korxonalari foydasidan ajratmalar	13 000
13	Davlat mulki bo'yicha ijara to'lovlari	105 000

Xalq deputatlari Namangan tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-3-025-6-82-K/24 -son qaroriga
2-ilova

**2025 yil uchun Namangan tuman mahalliy byudjetidan hududiy byudjet mablagʻlari
taqsimlovchilarga ajratiladigan mablagʻlarning cheklangan miqdorlari**

№	Hududiy byudjet mablagʻlari taqsimlovchilar nomi	Наманган тумани
Namangan tumani boʻyicha harajatlar miqdori, jami		135 912 882
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	zaxira jamg'armasi	1 775 003
	mening maktabim dasturi	2 226 919
	fuqarolar tashabbus jamg'armasi	30 195 285
1	Namangan tumani Maktabgacha va Maktab ta'limi bo'limi	43 693 675
	shundan:	
	"Mening maktabim"	2 226 919
2	Namangan tumani Madaniyat bo'limi	5 910 909
3	Namangan tumani Yoshlar ishlari agentligining hududiy bo'limi	6 178 923
4	Namangan tumani Sport bo'limi	7 607 218
5	Namangan tumani Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limi	1 749 069
6	Qishloq xo'jaligi bo'limi	2 230 578
7	Namangan tumani Irrigatsiya bo'limi	2 239 721
8	Namangan tumani Iqtisodiyot va moliya bo'limi	2 079 372
9	Namangan tumani Hokimligi	44 679 153
	shundan:	
	Ijtimoiy ko'nikma markazlari	97 084
	Ozodlikdan mahrum etish jazosini o'tab bo'lgan fuqarolarga «dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi»	23 000
	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	30 195 285
	"Mahalla byudjeti" jamg'armasi mablag'lari	1 926 970
	Zahira jamg'armasi	1 775 003
10	Hokimiyat (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi)	706 291
	shundan:	

	<i>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari</i>	<i>39 206</i>
	<i>Axborot-kutubxona markazlari</i>	<i>667 085</i>
11	Hokimiyat (Obodonlashtirish boshqarmasi)	18 837 973

Xalq deputatlari Namangan tumani Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-3-025-6-82-K/24 -son qaroriga
3-ilova

**2025 yil Namangan viloyatining viloyat, shahar va tumanlar budjetlari o'rtasida ajratmalar
normativlari belgilanadigan umumdavlat soliqlari va boshqa majburiy to'lovlar**

P R O G N O Z I

foiz hisobida

№	Hududlar nomi	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i				Foyda solig'i				alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)				pivo				benzin, dizel yoqilg'isi va gazni oxirgi iste'molchiga realizatsiya qilishda to'lanadigan aksiz solig'i			
		Tuman (shahar)lar byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga		Tuman (shahar)lar byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga		Tuman (shahar)lar byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga		Tuman (shahar)lar byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga		Tuman (shahar)lar byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga	
		MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB
4	Наманган тумани	0%	97%	100%	3%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	98%	100%	2%

foiz hisobida

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq				Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i				Qurilish materiallari bo'yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq				Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq				Davlat ulushi bo'yicha dividendlar				Aylanmadan soliq		Davlat boji		Jarima		Yig'imlar	
Tuman (shahar)lar byudjetiga	Viloyatning viloyat byudjetiga	Tuman (shahar)lar byudjetiga	Viloyatning viloyat byudjetiga	Tuman (shahar)lar byudjetiga	Viloyatning viloyat byudjetiga	Tuman (shahar)lar byudjetiga	Viloyatning viloyat byudjetiga	Tuman (shahar)lar byudjetiga	Viloyatning viloyat byudjetiga	Tuman (shahar)lar byudjetiga	Viloyatning viloyat byudjetiga	Tuman (shahar)lar byudjetiga	Viloyatning viloyat byudjetiga	Tuman (shahar)lar byudjetiga	Viloyatning viloyat byudjetiga	Tuman (shahar)lar byudjetiga	Viloyatning viloyat byudjetiga	Tuman (shahar)lar byudjetiga	Viloyatning viloyat byudjetiga	Tuman (shahar)lar byudjetiga	Viloyatning viloyat byudjetiga	Tuman (shahar)lar byudjetiga	Viloyatning viloyat byudjetiga	Tuman (shahar)lar byudjetiga	Viloyatning viloyat byudjetiga	Tuman (shahar)lar byudjetiga	Viloyatning viloyat byudjetiga
MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB								
0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	0%	0%	100%	0%	100%	0%	100%